



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NAMANGAN VILOYATI
XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI**

**YANGIQO'RG'ON TUMANI
XTMFMTTEBgaqarashli**

33-umumta'lim maktabi
Ona tili va adabiyoti fani
o'qituvchisi **D.Tursunboyevaning**

DARS
ISHLANMASI

Mavzu: Mustahkamlash darsi.

(“Fe’l nisbatlari “ mavzusi bo’yicha.)

Maqsad: a) O’quvchilar bilimini mustahkamlash, sinash, o’tilgan

mavzularni takrorlash.

b) Milliy an’analarimizga hurmat ruhini singdirish ;
madaniy nutq ko’nikmalarini shakllantirish;
fikrni o’stirish, axloqiy nafosat tarbiya berish.

Dars uslubi: noan’anaviy uslub.

Dars jihozi : darslik kitob, tarqatmalar, rasmlar, ko’rgazmalar, xat taxta, bo’r.

Darsning borishi: 1.Davomatni aniqlash.

2.Takrorlash,o’quvchilarni darsga jalb etish.

O’qituvchi: -o’lkamizda qanday fasl, bu faslda tabiatdagi o’zga-

rishlar qanday bo’ladi?

- o’lkamizda qish fasli, atrof oppoq qor bilan qoplangan.
- hozir barchamiz “**Fe’l nisbatlari** “ mavzusida kichik matn yaratamiz.

Bir o’quvchi boshlaydi.

Bajaruvchining harakat va holat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe’l shakllari nisbat shakllari sanaladi. Masalan, supurdi fe’lida supurish harakatini bajaruvchi shaxs aniq, supurildi fe’lida noaniq, supurishdi fe’lida birdan ortiq, supurtirdi fe’lida esa harakat boshqa shaxs vositasida bajarilgani ifodalangan

Nisbat shakllari fe’lning asos qismidan keyin qo’shiladi. Fe’l 5 ta nisbat shakliga ega:

- | | |
|--------------------------------|--------------------|
| 1) aniq nisbat;
shakli | 3) orttirma nisbat |
| 2) o’zlik nisbati ;
shakli; | 4) majhul nisbat |
| 5) birgalik nisbati. | |

95-mashq. Matnni o'qing. Ajratilgan fe'llarni yozing. Harakat va bajaruvchi o'rtasidagi munosabatlarni tushuntiring.

Bir yigit ko'zlari xiralashgan, ovqat yeganda qaltiraydigan qari otasining izzat-hurmatini bajo keltirmasdi.

Bir kuni chol bechora qo'li titrab, osh suzib berilgan kosasini tushirib sindirdi, buni ko'rgan kelini nordon so'zlar aytib, uning ko'nglini vayron qildi. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga ko'chirdi. Kelin esa eri keltirib bergan yog'och kosada qaynotasiga ovqat bera boshladi. O'g'li va kelinining bu kabi yaramas muomalalaridan ko'ngli ozor topgan ota vafot etgan kampirini eslab, ba'zan o'ksib yig'lardi. Besh-olti yoshli nevarasi bilangina tasalli topar edi. Bola bobosining yoniga kelib o'tirardi, ma'sum so'zlari, yoqimli qiliqlari bilan bobosini kuldirib, uning qayg'u-alamlarini yengillashtirardi. («Ertak»dan)

▼ **96-mashq.** Matnni yozing. Fe'llarni aniqlab, ularning nisbat shakllarini ayting.

Yer yuzida qancha millat, xalq, elat bo'lsa, shuncha til bor. Tilsiz xalq yo'q. Xalqsiz til ham bo'lmaydi. Bular egizak tushunchalardir. Birini biridan ayirib bo'lmas. Ular ayirib qo'yilsa, ikkisi ham o'zligini yo'qotadi. Xalq boshqa bir xalqqa qo'shilib ketadi. («Vatan tuyg'usi»)

97-mashq. *Yurmoq, o'qimoq, o'ynamoq, quvonmoq, rivojlanmoq, gapirmoq* fe'llariga nisbat shakllarini qo'shib o'zgartiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

98-mashq. Uyga vazifa. Matnni yozing. Fe'llarni ajrating. Ularning nisbatini aniqlab, ma'nosini tushuntiring.

98-mashq. Uyga vazifa. Matnni yozing. Fe'llarni ajrating. Ularning nisbatini aniqlab, ma'nosini tushuntiring.

Nonning nomi ulug', nomidan ham o'zi ulug'. Bolaga ins-jins ziyon yetkazmasin deb, ona o'z go'dagi yostig'i ostiga non qo'ygan. Ota o'g'lini o'zga yurtga safarga otlantirib, oq fотиha berarkan, «balo-qazolardan saqlaydi» degan ma'noda farzandining qo'liga non tutqazgan.

Yo'lga chiqqan bahodirga ota-onasi yoki suyuklisi non tishlatgan. Toki non-nasiba tortib, u uyga sog'-salomat, beshikast qaytsin. Xastani, keksalarni ko'rish, ustozni ziyorat qilish, hol-ahvol so'rash uyiga non tugib borishdan boshlangan. («Oltin sandiq ochildi» kitobidan).

. E'tiboringizni xat taxtasiga jalb eting.

O'zbekiston. Ushbu so'zda nechta harf bor?

Bir o'quvchi: 10 ta harf bor.

- Nechta unli harf bor ?
- 4 ta unli harf bor .
- Nechta bo'g'indan iborat?
- 4 bo'g'indan iborat.
- Ushbu so'zdagi harflar yordamida yana qanday so'zlar yasash mumkin?
- O'z, it, o'n, son, ekin, ot, is, in, ek, ini, eski.

Mana, biz fikrlarimizni charhlab ham oldik.

O'quvchilar “ **Grammatik topishmoqlar** “ ustida ishlashadi

.

1-o'quvchi : Tovush emas , harf emas ,
Tanho anglatmas ma'no .
O'zaklarga qo'shilib ,
Bildirar yangi ma'no .

Javob : So'z yasovchi qo'shimchalar .

2-o'quvchi : Bosh harfdan , doppisi bor ,
Qo'shtirnoqdan to'ni bor .

Javob : Qo'shtirnoqqa olinadigan atoqli otlar .

3-o'quvchi : Rangu , hajmu , maza- ta'm ,
Ma'nosida mujassam .

Javob : Sifat .

4-o'quvchi : Ma'nosida bor sanash ,
O'lchash hamda raqamlash .

Javob : Son .

5-o'quvchi : Otu sifat , sonlarga ,
Ham otlashgan so'zlarga .
Har doim o'rinbosar ,
Otlar kabi turlanar .

Javob : Olmosh .

G'olib juftliklarni **rag'bat** kartochkalari bilan rag'batlantiriladi .

Shundan so'ng , sinfdagi qolgan o'quvchilarga test kartochkalari tarqatiladi .(testlar ilovada) .

Musobaqalarda faol ishtirok etgan o'quvchilarni ball sistemasida baholab , har biriga shartli belgilar , ya'ni :

▲ __ 3 ball . ○ __ 2 ball . □ __ 1 ball bilan taqdirlanadi .

Ballar kundalik daftar va sinf jurnaliga teriladi . Testlarni bajarishda ham ana shu shakllardan foydalaniladi .

Taxtaga sana va mavzu yozaman.

Mavzu: Mustahkamlash darsi.

1-topshiriq. Nuqtalar o'rniga kerakli tovushlar qo'ying.
Ilg'or, miqdor, ketdik, foiz, ijod, murod, samimiyat, muhokama.

2-topshiriq.
Tomoqni asray desang ehtiyot bo'lib ye,
Izzatni asray desang ehtiyot bo'lib de.

3-topshiriq.
Zarur, terak, otdan, ista, borib, aylana, burun, shanba.

Tarqatmalar tarqataman.

1-topshiriq.
Tilshunoslik bo'limi nechta? Ular qaysilar?

2-topshiriq.

Fonetika bo'limi nimalarni o'rgatadi?

3-topshiriq.

Grafika bo'limi nimalarni o'rgatadi?

4-topshiriq.

Leksikalogiya bo'limi nimalarni o'rgatadi?

5-topshiriq.

Morfologiya bo'limi nimalarni o'rgatadi?

6-topshiriq.

Sintaksis bo'limi nimalarni o'rgatadi?

O'quvchilar tomonidan ushbu topshiriqlarga javob olaman.

O'quvchilar daftarini nazorat qilaman. Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantiraman.

Uyga topshiriq. 5-topshiriqni bajarish.

Shartini tushuntiraman.

O'quvchilar olgan ballarni kundalik daftariga qo'yaman va hayrlashaman.